



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI  
SAMARQAND TUMANI HOKIMINING

**Q A R O R I**

140300, Samarqand t., Gulobod qo‘rg‘oni.

2021 - yil 13 - oktabr

53-7-103-Q/21

Samarqand tuman hokimligi

**Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida  
teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun  
ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash**

**to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-sonli Qonunining 39-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-641-sonli Qonunining 18-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrda “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi 965-sonli qarori ijrosini ta‘minlash hamda tuman hududida joylashgan korxonalarda ish o‘rinlarini eng kam miqdorini belgilash va zaxiraga qo‘yish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,25-moddalariga asosan,

**QAROR QILAMAN**

1. Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida"gi Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun korxonalar, tashkilot va muassasalarda 2022 yilga belgilangan kvota ish o‘rinlari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-

sonli Qonunining 39-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida tumandagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 362 kishini tashkil etadigan 10 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorida, shu jumladan:

Nogironlar uchun 3 foiz -11 kishi;

Yolg‘iz ota, yolg‘iz ona hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar uchun 11 foiz – 40 kishi,

O‘rta-maxsus, “Mehribonlik uyi” tarbiyalanuvchilari, kasb-hunar ta’lim muassasasini tugatgan yoshlarga, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bittiruvchilar uchun 69,9 foiz – 252 kishi;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun 4,7 foiz –17 kishi;

pensiya yoshidagi shaxslar uchun 5,2 foiz -19 kishi;

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan, yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburiy choralariga tortilgan shaxslar uchun 5 foiz -18 kishi;

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 1,1 foiz -4 kishi miqdorida ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

3. Korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2021 yil yakunlashidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2022 yilning 10 apreldan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrda 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun

ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band etib qo‘yilishini) hamda ish joylari sanitariya gigiyena normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

5. Tuman hokimining mazkur qarori bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortilishiga asos bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019 yil 10 maydagi 19-2019-B-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami 3163, 31.05.2019 yil)ga asosan, “Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 barobari miqdorida subsidiyalar ajratilishi inobatga olinsin.

7. Tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (J.Melikov) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxonalar va tashkilot rahbarlariga yetkazsin.

8. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2020 yil 12 sentabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 1648-Q sonli qarori 2021 yilning 31 dekabridan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Tuman hokimligi axborot xizmati (B.Xonkeldiev)ga ushbu qarorni rasmiy nashrda e‘lon qilish hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishni ta’minlasin.

10. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari (F.Ganiyev, D.Azizova) zimmasiga yuklansin.

11. Mazkur qaror 2022 yil 1 yavardan to‘iq kuchga kiradi.

Туман ҳокими



Н.Мавлонов

Самарканд туман ҳокимининг  
2021 йил 13 октябрдаги  
53-7-103-Q/21-сон қарорига  
1-илова

**Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida  
teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylarining eng  
kam miqdorini belgilash bo'yicha komissiya**

**TARKIBI**

- F.G'aniyev** - Tuman hokimining birinchi o'rinbosari -  
Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni  
qisqartirish bo'limi boshlig'i,  
Ishchi komissiya raisi
- S.Mo'minov** - Tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi  
Ishsizlarni hisobga olish, ishga joylashtirish va  
ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sho'basi  
mutaxassisi,  
Ishchi komissiya kotibi

**A'ZOLARI**

- Sh.Hasanov** - Tuman hokimining o'rinbosari-Mahalla va  
oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i
- D.Azizova** - Tuman hokimining o'rinbosari
- F.Yuldashev** - Tuman aholi bandligiga ko'maklashish  
markazining Davlat mehnat huquq inspektori

Самарқанд туман ҳокимининг  
2021 йил 13 октябрдаги  
53-7-103-Q/21-сон қарорига  
2-илова

№	Туман (shahar) nomi	Ijtimoiy muxofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxati (korxonalar va tashkilotlarning nomi)	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarining umumiy soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni	shu jumladan:						
					14 yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali otalar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Umumiy o'rta maxsus, kasb- xunar ta'limi muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Safarbarlik chaqiriq zaxirasida o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Odam savdosi qurbonlari uchun band qilingan ish o'rinlari soni
1	Samarkand tuman	SAM TUM XTMFMT VA TEB	3947	97	13	71	3	3	4	2	1
2	Samarkand tuman	"SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI GULOBO D AGROBIOTE	53	2		2					

3	Samarkand tuman	"SPORTNING ESHKAK ESHISH TURLARI BO'YICHA IXTISOSLASHTIRILG	80	3	2				1		
5	Samarkand tuman	"ALISHER TRANS" MChJ	44	2	1	1					
6	Samarkand tuman	"MONDELUX KITCHEN" MChJ	105	3	2			1			
7	Samarkand tuman	"MULTI FRUIT KOREA" MCHJ XK	72	3	1			1	1		
8	Samarkand tuman	"NAVOBOD NASLLI PARRANDA" FX	225	7	4	1		1	1		
9	Samarkand tuman	"SAMARQAND GOLDEN APPLE GROUP" QK	40	1	1						
10	Samarkand tuman	"SHAXZOD MAZA TAOMLARI" MChJ	50	1	1						
11	Samarkand tuman	"X.FARMON.F" MCHJ	55	1	1						
12	Samarkand tuman	GULOBOB MEBEL MCHJ	311	10	6	1	1	1	1		
13	Samarkand tuman	MAROQAND PRESTIJ MCHJ	41	1	1						
14	Samarkand tuman	NAVOBOD TRANS MCHJ	168	7	3	1		1	1	1	
15	Samarkand tuman	SAMARQAND TUMAN KASB-HUNAR MAKTABI	78	3	3						
16	Samarkand tuman	ZARAFSHOH GROUP MCHJ	55	2	2						
17	Samarkand tuman	AO "SAMFRUIT"	62	3	3						

18	Samarkand tuman	GUP "SAMARQAND TUMAN YO'LLARDA	161	8		3	1		1	3	
19	Samarkand tuman	MTB	1466	36	10	20	2	2	2		
20	Samarkand tuman	OOO "BINOKOR"	49	2		2					
21	Samarkand tuman	OOO "G'ANISHER UNIVERSAL SERVIS"	53	2		2					
22	Samarkand tuman	OOO "GULOBOD EKO AGROLAGISTIKA MARKAZI"	69	3		2	1				
23	Samarkand tuman	OOO "INSHOOT-QURILISH"	42	1		1					
24	Samarkand tuman	OOO "LAZIZJON TRANS AVTO"	77	3		2	1				
25	Samarkand tuman	OOO "MAROQAND-PARRANDA"	219	6		3	1			2	
26	Samarkand tuman	OOO "MIRONKUL STROY SERVIS "	70	3		2					1
27	Samarkand tuman	OOO "O`LMAS BOBO"	54	2		2					
28	Samarkand tuman	OOO "PRESTIJ MED"	47	1		1					
29	Samarkand tuman	OOO "SAM CHINOR TEKSTIL"	49	1		1					
30	Samarkand tuman	OOO "SAMARQAND METALL KOMBINAT"	73	3		2				1	
31	Samarkand tuman	OOO "SAMARQAND SUV TAMINOTI"	98	3		2				1	
32	Samarkand tuman	OOO "SOGDA QURILISH"	72	3		2	1				



33	Samarkand tuman	OOO "SXF BRICK FACTOR"	41	1		1					
34	Samarkand tuman	OOO "TESPACK"	42	1		1					
35	Samarkand tuman	OOO "TOLIB BOBO AKT"	67	1		1					
36	Samarkand tuman	S.I.Ch.Sh.U.I.K.X MAKTABI	67	2		2					
37	Samarkand tuman	SAM S R B	2558	125	17	92	3	4	6	2	1
38	Samarkand tuman	FX "ISTIQLOL SHU'LASI"	52	2		2					
39	Samarkand tuman	FX "SAHOVAT AGRO INVEST"	64	3		2				1	
Jami			10960	362	40	253	17	11	19	18	4